



ON ETHNO-CULTURAL TOURISM EXPERIENCE

Sayfiddin Anarkulov

Associate Professor of the National University of Uzbekistan, PhD
Tashken, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: ethnotourism, "javlou tourism", komoch, kotirma, ecological-ethnographic tourism, ethnographic space, Forish, Zomin.

Received: 27.02.25

Accepted: 01.03.25

Published: 03.03.25

Abstract: This article analyzes the prospects for the development of ethno-cultural tourism in the conditions of Uzbekistan. In particular, the ethno-touristic possibilities of the Jizzakh oasis, which is one of the important historical and ethnographic regions of our country, have been revealed based on the analysis of ethnological data.

ETNOMADANIY TURIZM TAJRIBASI XUSUSIDA

Sayfiddin Anarkulov

O'zbekiston Milliy universiteti dotsenti, PhD
Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: etnoturizm, "javlov turizm", ko'moch, qotirma, ekologo-etnografik turizm, etnografik makon, Forish, Zomin.xalqaro tajriba.

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston sharoitida etnomadaniy turizmni rivojlantirish istiqbollari tahlil qilingan. Xususan, o'lkamizning muhim tarixiy-etnografik mintaqalaridan bir bo'lgan Jizzax vohasining etnoturistik imkoniyatlari etnologik ma'lumotlar tahlili asosida ochib berilgan.

ОБ ОПЫТЕ ЭТНОКУЛЬТУРНОГО ТУРИЗМА

Сайфиддин Анаркулов

Доцент Узбекского национального университета, PhD
Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: тнотуризм, "жавлов туризм", ко'moch, котирма, экологический-этнографический туризм, этнографическое пространство, Фориш, Зомин.

Аннотация: В данной статье анализируются перспективы развития этнокультурного туризма в условиях Узбекистана. В частности, раскрыты этнотуристические возможности Джизак-

ского оазиса, который является одной из важных исторических и этнографических областей нашей страны, на основе анализа этнологических данных.

Etnomadaniy turizm – bu turizm sohasining bevosita xalq bilan bog‘liq holda rivojlanish yo‘nalishi hisoblanadi. O‘z o‘rnida bu yo‘na-lishning etnik, etnografik, antropologik kabi tarmoqlarga tasniflanishi mumkin [1, 3]. Bunda turizm obyektlari aholisining turmushida saqlanib qolayotgan an‘anaviylik (ekzotika) tashrif buyuruvchilar uchun doimo qiziqarli tuyuladi. Odatda bunday obyektlar sirasiga sanoatlashmagan, tabiiy muhit bilan kuchli bog‘langan hududlarda keng tarqalganligini ko‘ramiz. Hozirgi kunda bu yo‘nalishda aborigen turizmi yoki jaylov turizmi kabi yangi-yangi turlarining shakllanmoqda. Bir necha yillar avval hatto Afrika sharoitida cho‘l turizmining ommalashgani ham shular jumlasidandir. Bunda asosiy talab qilinadigan narsa, har bir hududning o‘ziga xosligini ommaga yetkaza olish va marketingni qo‘llay olish qobiliyatidir. Shunda sarguzasht izlovlchilar cho‘l deganda suvsiz, jaziramani emas, balki, qumli landshaftda tuya minish, qumtepada jeep haydash yoki yulduzlar ostida tungi oqshom kabi ekzotikani tushunadilar.

O‘zbekistonning tabiatи uning eng katta boyligidir. Uning maydoni tekislik va tog‘li yerkarning o‘ziga xos uyg‘unlashgan qismidir. Tekisliklar janubi-g‘arbiy va shimoli-g‘arbda joylashgan bo‘lib, Ustyurt platosi, Amudaryo deltasi va Qizilqum cho‘lidan iborat. Ushbu cho‘lning markaziy va janubi-g‘arbiy qismlarida juda katta tog‘llar mavjud. Respublika hududining qariyb uchdan bir qismini egallagan tog‘lar va tog‘ etaklari sharq va janubi-sharqda joylashgan bo‘lib, ular Qirg‘iziston va Tojikistonning kuchli tog‘ tuzilmalari bilan to‘qnashadi. Bunday qulay iqlim va geografik joylashuv respublikaning har bir hududida agroturizm, ekomarkazlar va tabiiy hududlarni tashkil etish imkonini beradi. Masalan, Xorazm viloyatidagi agroturizm xo‘jaliklari, Sirdaryo viloyatidagi ovchilik markazi – Qalgansir, Qoraqir ko‘lidagi ekoturizm markazi, Sayxun qo‘riqxonasi dagi to‘qay o‘rmonlari va boshqalar shular jumlasidandir [2]. Bundan ko‘rinib turibdiki, respublikada turizmni rivojlantirish mumkin bo‘lgan bunday maskanlar juda ko‘p. Faqatgina, ularda ishni to‘g‘ri tashkil qilish uchun tajriba zarur hisoblanadi. Jalon tajribasida deyilganda ko‘p hollarda albatta, shu hududga texnika yutuqlarini olib kirish tushuniladi. Masalan kanatlar, osmono‘par ko‘priklar (Xitoy tajribasi), xizmat ko‘rsatish uchun yuqori reytingli mehmonxona xizmatlari. Bularning hammasi turizmni rivojlantirishning antropogen yechimidir. Bunday holatda iqtisodiy foyda ko‘rish bilan birga qaysidir ma’noda tabiat uchun zararlarni ham inobatga olish kerak. Masalan, qurilayotgan dam olish maskanlarining suv ta‘minotini to‘liq ta‘minlash hududning tabiiy muvozanatiga salbiy ta‘sir ham ko‘rsatishi mumkin. Olaylik, yer osti suvlaridan kuchli texnika yordamida katta

hajmda foydalanish, uning sathini pasayishiga, natijada daraxtlarning suv manbalaridan uzilishiga, yashil zonalarning qisqarishiga, tabiatning chiqindixonaga aylanishiga olib kelishini nazarda tutish kerak. Shuning uchun, ma'lum hududning tabiatini boricha qabul qilish, olaylik buloqlardan chiqayotgan suvlar bilangina chegaralanish maqsadga muvofiqdir. Albatta, bunda turizmni targ'ib qiluvchilarda suv manbalaridan foydalanishda buloqlarning ahamiyatini ommaga yetkaza olishi muhim hisoblanadi. Bunga misol tariqasida so'nggi yillarda Qirg'izistonda rivojlanayotgan "jaylov" turizmni keltirish mumkin. Bunda dalalarda (yaylovlar) mahalliy xalqlar yashaydigan, sivilizatsiya deyarli yetib bormagan, elektr va mobil aloqasiz hududlarda sayohatlar tashkil etiladi. Buning yordamida shahar aholisi bir muncha vaqt o'rta asrlarda yoki hatto ibtidoiy sharoitlarda yashash imkoniyatiga ega bo'ladi[3]. Sayohatchilarining mazkur hududlarga tashrif buyurishida shaharlarda kundalik hayotida yeishi mumkin bo'lgan taomlaridan voz kechib, haqiqiy "yaylov taomlari"dan iste'mol qilishga taklif qilishning qator foydali jihatlarini ko'rish mumkin. Birinchidan sayohatchilar tabiiy toza mahsulot iste'moliga erishadilar, ikkinchida turizm obyektiqa aylanayotgan hududlar turli chiqindilar kirib kelishi xavfidan himoyalanadi. Bu borada O'zbekistonning ko'pgina hududlari, jumladan, Jizzax viloyatining Zomin, Forish tumanlarida ham qator o'ziga xosliklarni uchratish mumkin. Masalan, ko'moch (qizigan toshda pishiriladigan non, "qotirma"), qozon patir, qimiz, g'ilmindi kabi taomlari borki, ularning respublikaning boshqa joylarida uchratish qiyin. Jahon tajribasidan ko'radigan bo'lsak, bu kabi sayohat turlari juda ko'p o'lkalarda, xususan, Islandiya orollarida ham keng qo'llaniladi. Hatto, turizm obyektlari bo'lgan issiq buloqli orollarga sayyoohlар bir necha chaqirimdan piyoda olib boriladi, u yerda haqiqiy tabiiylik hukm surib, qushlarning ovozi ham eshitilmaydigan darajadagi sokin muhit ta'min-langan. Baliq ovi ham kishilarning qadimda foydalangan ilk tajribalari asosida tashkil qilinadi. Bir so'z bilan aytganda, kishilar ruhan charchagan muhitdan tamomila boshqa dun-yoga tushib qoladilar. Ya'ni, u yerda odamlarga o'zлari yashab turgan "odatiy" hayotlarini eslatadigan biror narsa ko'zga tashlanmaydi. Huddi arab sahrolarida ming bir kecha olamiga sayohat qilish, arab madaniyatining jozibasi va go'zalligini tabbiy holda ko'rish kabidir. Bu tajribaning ommalashib borayotganini hozirda etnografik turizm kabi yangi tarmoqlarning rivojlanib borayotganligidan ham ko'rish mumkin. Etnik yoki etnografik turizm deyilganda ko'pincha muzey turizmi ham tushuniladi. Chunki milliy o'ziga xoslik faqat ochiq rejali muzeylar – qishloqlar, etnografik majmualar va boshqalarda saqlanib qolganligi ta'kidlanadi [4]. Bu orqali turistlarning har qanday toifasini mahalliy aholining tarixi, urf-odatlari, saqlanib qolayotgan ajdodlar hayoti bilan qiziqtirishi mumkin. Bu borada O'bekistoni ham keng imkoniyatlar makoni deyish mumkin. O'lkada qator tarixiy-etnografik viloyatlar mavjud bo'lib, u yerda yashayotgan turli etnik va etnografik

guruqlar o‘zlarining an’anaviy turmush tarzini bugungi kunga qadar saqlab kel-moqdalar. Ushbu hududlarda etnografik turizmni rivojlantirish orqali an’anaviy madaniyat joylariga, etnografik qishloqlarga tashriflarni yo‘lga qo‘yadigan turpaketlarni taklif qilish mumkin. Bu borada Forish tumanidagi Uxum, Mojrur kabi qishloqlarida bugungi kunga qadar mahalliy aholi tomonidan an’anaviy xo‘jalikning saqlanib qolayotgani, temirchilik, tegirmonlardan foydalanilayotgani sayyoqlar uchun haqiqiy ma’nodagi ekzotikani taqdim qila oladi.

Bozor iqtisodiyoti doimo davr talabiga moslashuvni talab qiladi. Ya’ni talabga qarab zarur yo‘lni tanlash dastlabki yutuqlarning garovi hamdir. Insoniyat hozirgiday axborot olish va tarqatish imkoniyatiga hech qachon ega bo‘lmagan. Rivojlangan mamlakatlar tajribasi ham shuni ko‘rsatadiki, qo‘lga kiritilayotgan natijalarining zamirida kommunikatsiya texnologiyalaridan unumli foydalanish yotadi. Ular internet orqali o‘z mahsulotlari haqidagi ma’lumotlar kirib boradigan auditoriyani kun sayin kengaytirmoqda. Demak, bizda ham etnografik turizmni rivojlantirishda shu yo‘ldan foydalanishni yanada kengaytirish davr talabiga aylanib bormoqda. Bu borada O‘zbekiston Milliy universiteti Tarix fakulteti Antropologiya va etnologiya kafedrasи professor-o‘qituvchilari hamda talabalari tomonidan tayyorlanayotgan mahsulotlarni alohida ta’kidlash lozim. So‘nggi 3-4 yil davomida an’anaviy tarzda tashkil etilayotgan talabalar amaliyoti davrida respublikaning chekka qishloqlari haqida tayyorlangan etnografik turizmni targ‘ib qiluvchi qator materiallar turli tarmoq va kanallarga joylashtirib kelinmoqda. Bu borada tayyorlangan materiallar sababli Germaniyaning Myunxen universitet bilan hamkorlikka erishilgani ham buning isbotidir.

Etnomadaniy turizmning ekologo-etnografik turizm yo‘nalishi ham borki, bunda ekologik me’yorlarga, mahalliy qonunlarga va urf-odatlarga riosa qilgan holda, hududning etnografik merosini o‘rganish va saqlashga yordam berish uchun an’anaviy xo‘jalik shakllariga ega hududlarga sayohat qilish tushuniladi [5]. O‘zbekistonda esa bunday manzilgohlarni juda ko‘plab uchratish mumkin. Qashqadaryo viloyatining eng yuqori nuqtalaridan biri hisoblangan G‘elon qishlog‘i ham shunday go‘shalardan biri hisoblanadi. G‘elon qishlog‘i Shahrисabz tumani markazidan 100 km olisda, viqorli tog‘lar bag‘rida joylashgan. Bu yerning tabiiy sharoiti aholining o‘ziga xos turmush tarzini shakllantirgan. Etnografiya sohasidan shug‘ullanuvchilar orasida bu hududga bormagan yoki u haqida eshitmagan kishilar juda oz bo‘lsa kerak. Haqiqatdan ham juda ajoyib maskan. Tabiatning izlari har bir gelonlikning yurish-turishida aks etadi. Olaylik, hududning relyefi o‘ziga xos transport tizimini “yo‘lga qo‘ygan”. Aholining aksariyati qishloqning tabiiy sharoiti tajribasidan o‘tgan transport turlaridan foydalanadilar. Eshaklar har bir xo‘jalikning eng yaqin yordamchisiga aylangan. Chunki, zamonaviy transport vositalari qishloq relyefida unchalik ham foydali hisoblanmaydi. “UAZ” yoki “IJ” motosikllari

foydalinish uchun eng qulay vositaga aylangan. G‘elon qishlog‘ida yoz qisqa, yog‘in-sochinli, salqin mavsum nisbatan uzoqroq davom etgani uchun dehqonchilik mavsumida, energiya manbalaridan unumli foydalinishda qator o‘ziga xosliklar shakllangan. Olaylik, boshqa hududlarda ayrim meva turlari pishib tugagan davrda hududda ularning endi pishgan bo‘ladi. Qishki iste’mol uchun ham aynan shunday tabiiy mahsulotlar zaxira qilinadi. Bu esa, ularni saqlashning o‘ziga xos texnologiyasini yaratilishiga olib kelgan. Shuningdek, tabiiy gaz yetib bormagan mazkur qishloqda energiya manbasi sifatida tappilarning keng ommalashganini ko‘rish mumkin. Albatta, bir qarashda kishilarda mazkur hudud aholisi uchub achinish hissi, ijtimoiy-iqtisodiy muammolar bilan kurashayotgan inson qiyofasi gavdalanishi tabiiy. Biroq, buning boshqacha talqini o‘laroq tabiat bilan hamnafas yashayotgan inson obrazini yaratish ham mumkin. Ya’ni, bu hozirgi zamonaviy texnologiyalarga ko‘milib yashayotgan sharoitda arzimagan muammolar uchun noliyotgan kishilarni imkoniyat izlash, tabiat bergen bor imkoniyatlardan unumli foydalinish kabi hislatlarni unutmaslikka chorlash yo‘li hamdir. Bir so‘z bilan aytganda etnoturizm tajribasi faqatgina kishilarning moddiy yetukligini ta’minlovchisi bo‘lmay, balki, ma’naviy ozuqani boyitishda ham muhim omil sifatida xizmat qiladi. Shuningdek, tabiat va inson ittifoqchiligini targ‘ib qilishda eng qulay vosita hamdir. Qolaversa etnoturizm tajribasi cho‘lning cho‘l, tog‘ning tog‘ bo‘lib yaralganligi, har doim ham ulardan foydalinish uchun “o‘zlashtirish” emas, ba’zida mayjud sharoitga moslashish ham maqbul tanlov ekanligini odamlarga tushuntiradi.

Foydalilanigan adabiyotlar ro‘yxati:

1. А.Г. Бутузов. Этнокультурный туризм. – Кнорус, 2017. – 248 с.
2. <https://uzbekistan.travel/ru/c/prirodnye-zony/>
3. <https://ru.wikipedia.org/wiki/%D0%94%D0%BD%D0%B0%D0%BB%D0%BE%D0%BD%D0%BE%D0%BD%D0%BE%D0%BD%D0%BE%D0%BD>
4. М.Ю.Балаганская. Роль этнокультурного компонента в формировании туристического продукта. tourlib.net. Дата обращения: 3 сентября 2020. Архивировано 24 февраля 2020 года.
5. Эколого-этнографический туризм. multiring.ru. Дата обращения: 3 сентября 2020. Архивировано 6 октября 2017 года.
6. Zokirov, B. (2024). The role of national-cultural traditions and intangible cultural heritage in the development of ethno tourism. Science and innovation, 3(Special Issue 46), 794-796.

7. Одилов, Б. (2024). Некоторые комментарии о возможностях развития этнотуризма (на примере наманганской области, янгикурганского района). *Science and innovation*, 3(Special Issue 46), 507-510.